



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Abdusaidova Barchinoy

Husnidin qizi

SamDU, talabasi

ORNITONIM KOMPONENTLI MAQOLLARINING LEKSIK- SEMANTIK XUSUSIYATLARI HAQIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq maqollarining leksik-semantik tuzilishida ornitonimlarning ahamiyati, qo'llanishidagi o'ziga xosliklar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ornitonim, leksema, o'z ma'no, ko'chma ma'no, sema

Xalq og'zaki ijodiyotining yuksak namunasi bo'lgan maqollar kishilik jamiyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqollar – bu ota-bobolarimizning uzoq yillik tajribalari asosida yuzaga kelgan, ularning hayotiy kuzatishlari va xulosalarini o'zida mujassamlashtirgan ibratnomalar hisoblanadi. Jumlagi mos maqollarni qo'shib gapirish nutqni yanada ta'sirchan, jozibador qilishi barchamizga ma'lum. Bilamizki, maqollar o'z va ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Shunday ekan maqollardan to'g'ri foydalana bilishimiz lozim. Buning uchun esa biz maqollarning kelib chiqishini, leksik-semantik tuzilishini bilishimiz lozim.

Xalq og'zaki ijodining ko'pgina janrlarida, jumladan, maqollarda jamiyatdagi munosabatlar, holat va hodisalarni soddaroq, oydinroq ifodalash maqsadida



tabiatdagi o'z xususiyatlari bilan shunga mos keladigan turli narsalar (qushlar, hayvonlar, o'simliklar, ularning mevalari, jismlar, uy jihozlari, ish qurollari, mehnat mahsulotlari va hokozolardan) obrazli ustalik bilan foydalaniladi. Ana shu narsalarning har birini timsol qilib olib, ular vositasida muayyan sifatlarga (xoh ijobiy, xoh salbiy) ega bo'lgan kishilarning obrazi gavidalantiriladi.

Biz ushbu maqolamizda ornitonim komponentli maqollarga e'tibor qaratdik. Ornitonim komponentli maqollarda asosan hayotimizda ko'p uchraydigan, barchaga ma'lum bo'lgan qush nomlaridan foydalanilgan.

Kuzatishlarimiz natijasiga ko'ra o'zbek xalq maqollarida yirik qushlardan: burgut (Burgut kuchi – oyog'ida, Odamniki – do'stlikda), qarg'a (Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimas), qiyg'ir (Qiyg'ir uchsa, chumchuqni tirqishda ko'r), tovus (Tovus tanasiga qarab yayraydi, oyog'iga qarab yig'laydi), qarchig'ay (qarg'a qanot yozib qarchig'ay bo'lmas), shunqor (Ikki shunqor urishsa, bir qarg'aga yem tushar), yapaloqqush (Burgut qarisa, yapaloqqush bo'lar), laylak (Laylakning ketishiga emas kelishiga boq), to'rg'ay (To'rg'ay qutursa, burgutga chopar);

Mayda qushlardan: bulbul (Zimiston ko'rmagan bulbul, Guliston qadrini bilmas), bedana (Bedananing uyi yo'q, Qayga borsa «bitbildiq»), kaklik (Bulbulga bog'yaxshi, Kaklikka –tog'), chumchuq (Chumchuq ham o'z toshicha botmon);

Parrandalardan: o'rdak (Dunyoni suv bossa, o'rdakka ne g'am), g'oz (G'oz to'dasi yo'l boshchisiz uchmas), xo'roz (Boyning xo'rozi ham tuxum qilar), tovuq (Ola tovuq somon sochar, O'z aybini o'zi ochar), jo'ja (Jo'jali tovuqdan don ortmas. Jo'jani kuzda sanarlar) kabi komponentlarni ko'proq uchratishimiz mumkin.

Maqollarda ushbu ornitonim komponentlaridan foydalanishda asosan, ularning tabiati, ovozi, katta-kichikligi, yashash sharoiti, tashqi ko'rinishi kabi xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Bunday maqollar asosan ko'chma ma'noda qo'llanilgan. *Bulbul qafasda sayramaydi* maqolida bulbul tabiatidagi sayroqilik xususiyatiga urg'u berilgan. Bulbullar gulzorda, chamanzorda erkin uchsagina sayrashadi. Ammo ushbu maqol majoziy ma'noda qo'llanilgan bo'lib insonlar haqidadir. Maqolning tag mazmunida insonlarning erkinligi, ozodligi yotibdi.



Tovuq ham tirmalab to'yinar maqoliga ham e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu yerda insonlardagi mehnatsevarlik fazilati yotibdi. Insonlar hayotida halol mehnat bilan non topsagina, inson huzur-halovat topadi. Aksincha mehnatsiz kelgan narsalar insonga yuqmaydi, qornini to'yg'azmaydi.

Tulkining tushiga tovuq kiradi, tovuqning tushiga tariq kiradi. Odatda kishi biror narsani o'ngida ko'p ko'rsa, ko'p o'ylasa, shu narsa uning tushiga ham kiradi. Mazkur maqolni: «Har kim o'z niyatiga, maqsadiga yetishish orzusida bo'ladi, shu haqda o'ylaydi, qayg'uradi, shuning g'amida yuradi», degan ma'noda qo'llaydilar.

Jibljibonning es-hushi pashsha tutishda. Jibljibon – chumchuqning bir turi, uni «Tog'chumchug'i» deb ham ataydilar. U juda serharakat qush bo'lib, yerda mayda-mayda qadam tashlab, ildam yo'rg'alab, ingichka va uzun dumini doim likkilatib yuradi. Yerda yurgan hatto uchib ketayotgan pashshalarni osongina tutib yeydi. Majozan ushbu maqol o'z istaklarini qondirish, o'z maqsadiga erishish yo'lida turli xiyla nayranglar ishlatuvchi, osongina o'zgalarni alday oladigan, ularni «tutib oladigan» insonlar haqida.

Qush tilini qush biladi. Hayot qonuniyati shundaki, har bir kasb egasining «tili»ni – ya'ni uning hol-ahvolini, sir-asrorini, ichki kechinmalarini, niyat-maqsadini, nuqson-kamchiligini, xullas, jamiki o'ziga xos xususiyatlarini o'sha kasb egalari; qariyaning tilini qariyalar, ayolning tilini ayollar, bolaning tilini esa bolalar va h.k. boshqalarga nisbatan yaxshi biladilar, yaxshi tushunadilar, his etadilar.

Demak, yuqorida keltirilgan maqollardan kelib chiqsak ornitonim komponentli maqollarning aksariyati ko'chma ma'noda qo'llaniladi va ulardagi o'ziga xos belgilardan insonlardagi turli xil fe'l-atvorni, emotsional holatlarini, insoniy fazilatlarni, kamchiliklarni – umuman olganda insonlarning xarakterini ochib beruvchi ma'nolarni ifodalashda qo'llaniladi. Bunday maqollarda aynan bitta ornitonim komponenti bir o'rinda ijobiy ma'noda qo'llanilsa, yana boshqa bir o'rinda esa insonlardagi salbiy xislatlarni, xarakterni namoyon qilish uchun qo'llaniladi.

O'zbek xalq maqollarida ornitonim komponentli maqollarning o'z ma'nosida qo'llanilgan holatlarini ham uchratamiz. «Bulbul chamanni sevar, Odam –Vatanni»; «Boqqa bulbul yarashar, Odamga – aql»; «Qarg'a qag'illasa qishni chaqirar, G'oz



g'ag'alasa – yozni»; «Jo'jani sanab bil, Kuchni – sinab»; «Burgut kuchi – oyog'ida, Odamniki – do'stlikda»; «Xo'rozning suti yo'q, Qo'rqoqning quti yo'q»; «Qo'shnining tovug'i g'oz ko'rinar, Kelinchagi – qiz»; «Tovuq ko'rganin cho'qir, Mulla bilganin o'qir»; «Oz bo'lsin, soz bo'lsin Bedana bo'lsin, yog' bo'lsin»; «O'rgimchakdek o'rmala, Bedanadek yo'rg'ala»; «Chumchuqdan qo'rqqaqan tariq ekmas, Chigirtkadan qo'rqqaqan – ekin»; «Bulbul navosi –ko'ngil havosi» va h.k

Bunday maqollarda, e'tibor bersak o'z ma'nosida qo'llanilganida, qush nomlaridan insonlardagi xususiyatlarni, do'stlik, mehr-oqibat, yaxshilik yoki insonlarning salbiy xarakterini; hayotimizdagi biror bir hodisani ochib berishda foydalanilar ekan. Va bunday maqollarning deyarli barchasi tuzilish jihatidan qo'shma gap shaklida bo'ladi.

Ornitonomik komponentli maqollar yuqorida ta'kidlanganidek, qushlar tabiatidan kelib chiqib majozan insonlardagi fe'l-atvor xususiyatlarni yoritib berish uchun xizmat qiladi.

Ikki shunqor urushsa, bir qarg'aga yem tushar. (shunqor – ovchilar qo'lga o'rgatadigan ov qushi. Uni mard, botir, dovyurak odamlarga tashbeh etadilar). Maqolning to'g'ri ma'nosi shuki, agar ikki shunqor osmonda bir-biri bilan urushib qolsa, ular og'zida olib kelayotgan yem yerga tushib ketadi-da, qarg'aga tayyor o'lja bo'ladi. Majozan: Ig'vogar, mutahham odam o'z kuchi yetmaydigan ikki odamning o'rtasiga nifoq solib, o'zlari bilan o'zlarini ovora qilib qo'yadi-da, shundan manfaatlanib qoladi.

Zog'cha sigirdan qo'rqmaydi. Bu maqolni majozan xiyonatchi, jinoyatchilarga nisbatan qo'llaydilar.

Itolg'i – qarchig'ayning sherigi. Itolg'i – yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga kiradi. Itolg'i shunday olg'ir qushki, u osmonda uchib ketayotgan qushni ham, yerda yugurib ketayotgan kemiruvchini ham osongina ovlay oladi. O'tmishda bu maqolni majozan: «Boylar, amaldorlar va shariat peshvolari, domla-imomlar xalqni talashda, aldab yeyishda bir-birlariga sherik bo'ladi, bir-birlaridan qolishmaydilar» degan ma'noda qo'llaganlar.



Zagʻizgʻon bir qoʻnib, sakkiz sakraydi. Zagʻizgʻon – ziyrak, hushyor va ehtiyotkor qushlardan biri. Xalqimizda esa majozan, ayyor, oʻgʻri va xiyonatkorlarni zagʻizgʻonga tashbeh etadilar.

Bulbul – insonning eng sevimli, eng ardoqli qushlaridan biri. Ornitonim komponentli maqollarda bulbul leksemasi odatda oshiq maʼnosini ifodalash uchun qoʻllanilgan. «Sevgining aslini bulbuldan soʻra, Gulzorning qadrini – guldani»; «Gulsiz bulbul – yorsiz bulbul»; «Bulbulning suyгани – gul»; «Bulbulning ishqı – gulda»; «Bulbul gulga oshiq, Gul – sanamga».

Shunday qilib, oʻzbek xalq maqollarida qoʻllanilgan ornitonim komponentlar oʻz va koʻchma maʼnolarda qoʻllanilgan boʻlib, bunday maqollar xalqimizning tarixini, urf-odatini, feʼl-atvorini, ruhiyatini oʻzida aks ettirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002.
2. Oʻzbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2016.
3. Mirtojiev M. Gap boʻlaklarida semantik – sintaktik nomutanosiblik. Toshkent. “ Universitet”, 2008.
4. Shomaqsudov Sh.«Hikmatnoma», Toshkent, 1990.
5. Sobirov A. Oʻzbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi sifatida tadqiq etish. –Toshkent: Maʼnaviyat, 2004.92-b.
6. Shorahmedov Sh. Maqollarning paydo boʻlishiga doir. “Oʻzbek tili va adabiyoti”. 1971, 4-son. 31-34-betlar.